



Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li,
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MIGRANT OILALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI EMPIRIK TADQIQ ETISHNING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek migrant oilalarining shaxslararo munosabatlarni psixologik xususiyatlari yoritilgan. Maqolada migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi shaxslararo munosabatlarni etnik va gender jihatlari hamda migratsiya muddatini davomiyligi bo'yicha tahlillar ko'rsatilgan. Shaxslararo munosabatning oilalar mustahkamligiga ta'siri ko'rsatilgan. Shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha psixologik taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, migrant oilalar, psixologiya, psixologik xizmat, gender identifikatsiya, etnik omil, shaxslararo munosabat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические особенности межличностных отношений в семьях узбекских мигрантов. В статье представлен анализ этнических и гендерных аспектов взаимоотношений лиц в мигрантских и немигрантских семьях, а также продолжительность периода миграции. Было доказано, что личностные установки оказывают влияние на прочность семей. Индивидуальными даны психологические предложения и рекомендации по правильному построению отношений.

Ключевые слова: миграция, семьи мигрантов, психология, психологическая служба, пол, этническая принадлежность, личность отношение.

Abstract. This article describes the psychological characteristics of interpersonal relationships of Uzbek migrant families. The article shows the analyzes of interpersonal relations in migrant and non-migrant families by ethnic and gender aspects and the duration of the migration period. Interpersonal relationships have been shown to influence the strength of families. Psychological suggestions and recommendations for correct interpersonal relations are given.

Key words: migration, migrant families, psychology, psychological service, gender, ethnic, interpersonal relationship.

Kirish. Oila va nikoh munosabatlarning turli muammolari orasida psixologik omillardan kelib chiqadigan muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular orasida migrant oilalardagi shaxslararo munosabatlari jozibadorlikning umumiy nazariyasi nuqtayi nazaridan o'rganilishi kerak bo'lgan turmush o'rtoqlarning uyg'unligi va ularning munosabatlari masalalari kiradi. Migrant oilalardagi shaxslararo munosabatlar tahlili migrant turmush o'rtoqlar eng muhim oilaviy qadriyatlar

haqidagi g'oyalarning ma'lum bir izchilligi bilan ajralib turishi, bu turmush o'rtog'i bilan shaxsiy identifikatsiyalash va tashqi atraksiya sohalarida, shuningdek, hissiy-psixoterapevtik va otalarning ta'lim sohalarida eng aniq namoyon bo'lganligini ko'rsatadi.

Oilani mustahkamlash jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu muammoning yechimiga qaratilgan keng ko'lamli amaliy ishlar oilalarning farovonligini

oshirish, farzandlar tarbiyasini yuksaltirish, yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga tayyorlashni o'z ichiga oladi. Nikoh-oila munosabatlarini mustahkamlash vazifasini bajarishda oila xizmati tobora muhim o'rin tutmoqda.

Asosiy qism. Tadqiqotimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, T.Lirining "Shaxslararo munosabat diagnostikasi" metodikasining bizni qiziqtirayotgan muammoni yechishga va migrant oilalardagi psixologik xususiyatlar, shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligini ochib berishga qaratilgan shkala ko'rsatkichlarini olgan holda natijalarimizni tahlil etish bilan mulohazalarimizni davom ettiramiz.

T.Lirining "Shaxslararo munosabat diagnostikasi" metodikasining normal taqsimot qonuniga muvofiqligini tekshirish orqali olingan natijalar quyidagicha ko'rinish oldi: o'ziga ishonch, o'zini yaxshi ko'rish shkalasi bo'yicha ($Z=2,970$; $p<0,01$), talabchanlik, murosasizlik shkalasi bo'yicha ($Z=2,229$; $p<0,01$), yon berishlik, passiv bo'ysinuvchanlik shkalasi bo'yicha ($Z=1,755$; $p<0,01$), ishonuvchanlik, itoatkorlik shkalasi bo'yicha ($Z=1,452$; $p<0,01$). Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi.

1-jadval

"Shaxslararo munosabat diagnostikasi"
(T.Liri) metodikasining tafovutlar tahlili
($n=140$) Farg'ona viloyati misolida

Shkalalar	O'rtacha ranglar		Statistik qiymat
	Migrant oilalar ($n=50$)	Migrant bo'lmagan oilalar ($n=50$)	U
O'ziga ishonch	47,98	53,02	1124,000
Talabchanlik	41,39	59,61	794,500**
Yon berishlik	35,03	65,97	476,500**
Ishonuvchanlik	50,26	50,74	1238,000

Izoh: ** - $p<0,01$

Shaxslararo munosabatlarni o'rganishda ko'pincha ikkita omil ajralib turadi: hukmronlik – bo'ysunish va do'stlik – agressivlik. Aynan shu omillar shaxslararo idrok etish jarayonlarida shaxsning umumiy taassurotini belgilaydi. Yuqorida keltirilgan jadvaldan shaxslararo munosabatlarda uchrovchi shaxsning pozitsiyalari keltirilgan bo'lib, migrant va migrant bo'lmagan oilalarda ko'rsatkichlar bo'yicha farqlar kuzatilganini

ko'rishimiz mumkin. Xususan, talabchanlik bo'yicha migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 41,39 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha rang ko'rsatkichi 59,61 ni tashkil etdi ($U=794,500$; $p<0,01$). Migrant oilalardagi shaxslararo munosabatlarda talabchanlikning past bo'lishi ularning "o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma" maqoliga mos harakatlarning xulq-atvorlarida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Begona joyda, o'zi uchun yangi muhit sharoitida kechadigan muloqot jarayonlarida migrantlar ko'proq ehtiyotkorlik, o'rganuvchilik pozitsiyasi tarafidan yondashadilar. Migrant bo'lmaganlarda "xo'roz o'z inida qichqirar" maqolining tabiatiga singib ketganliklari bois, oilada, do'stlar davrasidagi munosabatlarda ko'proq dominantlik ustun bo'ladi. O'zi uchun tanish bo'lganlar orasida erkinlikni his qilishlari, muloqotda sherigini ayamaslik, oilaviy munosabatlarda yon bermaslik, hamrohiga nisbatan talabchan bo'lish kabilarda namoyon bo'ladi.

Yon berishlik ko'rsatkichi bo'yicha ham migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 35,09 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha rang ko'rsatkichi 65,97 ni tashkil etdi ($U=476,500$; $p<0,01$). Migrant shaxslar tashqi bosimlarga yon berish, passivlik ko'rsatish past darajada bo'lsa-da, mazkur olingan natijalar orqali ularda ichki qarama-qarshi kurash yuqori bo'lgani sababli o'z his-tuyg'ulari va xohish-istaklari o'rtasidagi kurashlarda qaysidir tarafga yon berishlikda ikkilanish bo'ladi. Bu muloqot, shaxslararo munosabatlarda ham namoyon bo'lib, shaxsda agressivlik, depressiv xatti-harakatlar ko'lamining ortishiga olib keladi. Natijada nizolashuvchanlik holatlari oila a'zolari, hamkasblari bilan ham sodir bo'lish ehtimoli ortadi.

2-jadval

"Shaxslararo munosabat diagnostikasi"
(T.Liri) metodikasining migrantlik muddati
ko'rsatkichlari tafovuti
Farg'ona viloyati misolida

Shkalalar	O'rtacha ranglar			Statistik qiymat
	1-3 yil	4-7 yil	8 yil va undan yuqori	H
O'ziga ishonch	27,32	26,43	19,39	2,044
Talabchanlik	23,16	28,55	23,00	1,800
Yon berishlik	18,71	31,82	24,39	8,500*
Ishonuvchanlik	28,29	28,27	12,83	8,480*

Izoh: * - $p<0,05$

“Shaxslararo munosabat diagnostikasi” metodikasining tahlili amalga oshirilganda faqatgina ikkita ko‘rsatkich bo‘yicha ahamiyatli farqlar kuzatildi. Yon berishlik shkalasi bo‘yicha migrantlik muddati 1-3 yil bo‘lgan migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari 27,32 ni, 4-7 yil bo‘lgan migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari 26,43 ni, 8 yil va undan ortiq muddat bo‘lgan migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari 19,39 ni tashkil etdi ($H=8,500$; $p<0,05$). Yon berishlik ko‘rsatkichining 4-7 yildagilarda yuqori bo‘lishi migrantlarning mahalliy, tub aholi “tili”ni topganligi natijasi deb baholash mumkin.

Ishonuvchanlik shkalasi bo‘yicha migrantlik muddati 1-3 yil bo‘lgan migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari 28,29 ni, 4-7 yil bo‘lgan migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari 28,27 ni, 8 yil va undan ortiq muddat bo‘lgan migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari 12,83 ni tashkil etdi ($H=8,480$; $p<0,05$). Ushbu ko‘rsatkichda “ko‘p yillik tajribaga” ega migrant oilalarda past natijaning kuzatilishi faoliyat olib borayotgan muhitida shaxslararo munosabatlar doirasida “pand yeyish” natijasi deyishimiz mumkin. Shu bois, ularning muloqot jarayonida sherigiga nisbatan ishonchsizlik, shubhalanish, gumon, nonkonformlik kabi xislatlar ustun bo‘lishi mumkin, deb aytish joiz.

3-jadval

“Shaxslararo munosabat diagnostikasi” (T.Liri) metodikasining tafovutlar tahlili (n=165) Andijon viloyati misolida

Shkalalar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat
	Migrant oilalar (n=122)	Migrant bo‘lmagan oilalar (n=43)	U
O‘ziga ishonch	65,61	98,09	1020,000**
Talabchanlik, Murosasizlik	75,33	65,08	1586,500
Yon berishlik, Bo‘ysinuvchanlik	74,76	67,02	1650,500
Ishonuvchanlik, Itoatkorlik	69,79	83,91	1488,000

Izoh: ** - $p<0,01$

Andijon viloyatidagi migrant va migrant bo‘lmagan oilalardagi shaxslararo munosabatlar darajasi, ularning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil

etilganda, etnopsixologik xususiyatlar nuqtayi nazaridan Farg‘ona viloyatidagi migrant oilalardan tubdan farq qilishi aniqlandi. T.Lirining o‘ziga ishonch-o‘zini yaxshi ko‘rish metodika shkalasida ham ishonchli farq kuzatildi ($U=1020,000$; $p<0,01$). Bunda migrant oilalarda o‘rtacha rang 65,61 ni, migrant bo‘lmagan oilalarda 98,09 ni tashkil etdi. Migrant bo‘lmagan oilalarda o‘ziga ishonchi baland, o‘zgarishlarga tayyor, mustaqil fikrlay oladigan, jamiyatda bo‘ladigan raqobatlashishga tayyor, qobiliyatlariga ishonadi, yangiliklarga moslashadi, muammo bo‘lganda qochish emas, yashab turgan sharoitidan kelib chiqib hal qilishga harakat qiladi. Migrant oilalar esa ko‘proq yangi vaziyatga ko‘nikish, yechim topish chorasini boshqa davlatga borish orqali hal qilish mumkin deb hisoblab, ularning osonroq o‘y-fikrlar orqali izohlaydi.

Talabchanlik shkalasi bo‘yicha migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 75,33 ni, migrant bo‘lmagan oilalarda esa o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 65,08 ni tashkil etdi ($U=1586,500$; $p>0,05$). Talabchanlik ko‘rsatkichining migrant oilalarda migrant bo‘lmagan oilalarga qaraganda yuqoriroq ko‘rsatkichda bo‘lganligi ularning o‘zidan va atrofdagilardan talablari ko‘p bo‘lganligi, kutilmalarini ro‘yobga chiqarishda shaxslardan “umidlarining” yuqoriligi natijasi deb baholash mumkin. Yon berishlik ko‘rsatkichi bo‘yicha migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 74,76 ni, migrant bo‘lmagan oilalarda esa o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 67,02 ni tashkil etdi ($U=1650,500$; $p>0,05$). Yon berishlik ko‘rsatkichining migrant oilalarda ustunroq darajada bo‘lishi migrantlarning mahalliy, tub aholi “tili”ni topganligi, shuningdek, o‘ziga joyda “saqlanib qolish” uchun shaxslararo munosabatlarda retsiptiyent pozitsiyasini afzal ko‘rganliklarining natijasi deb baholash mumkin.

Ishonuvchanlik ko‘rsatkichi bo‘yicha migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 69,79 ni, migrant bo‘lmagan oilalarda esa o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 83,91 ni tashkil etdi ($U=1488,000$; $p>0,05$). Ishonuvchanlik ko‘rsatkichining migrant bo‘lmagan oilalarda yuqoriroq bo‘lishi oiladagi shaxslararo munosabatlar o‘zaro tenglik, bir-biriga ishonch, sadoqat tamoyillari asosida qurilganligi natijasida er-xotin, farzandlar muloqotida bir-biriga ishonish, qo‘llab-quvvatlash tufayli hamkorlik aloqalarining yaxshi rivojlanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi.

4-jadval

**“Shaxslararo munosabat diagnostikasi”
(T.Liri) migrantlik muddati ko‘rsatkichlari
asosidagi tahlili (n=122)
Andijon viloyati misolida**

Shkalalar	O‘rtacha ranglar			Statistik qiymat
	1-3 yil (34 ta)	4-7 yil (60 ta)	8 yildan yuqori (28 ta)	
O‘ziga ishonch. O‘zini yaxshi ko‘rish	51,66	60,72	40,13	4,041
Talabchanlik. Murosasizlik	49,76	61,46	41,75	4,838
Yon berishlik. Bo‘ysinuvchanlik	49,57	63,51	24,56	12,719**
Ishonuvchanlik. Itoatkorlik	48,78	62,71	34,94	8,147*

Izoh: *- $p < 0,05$, ** - $p < 0,01$

Tadqiqotimiz doirasida migrant oilalarning chet elda ishlash yillari guruhlariga ajratilganda ularda metodika shkalalari bo‘yicha quyidagi natijalar kelib chiqdi. T.Liri metodikasining yon berishlik-bo‘ysinuvchanlik shkalasi o‘rtasida ishonchli farq kuzatildi ($H=12,719$; $p < 0,01$). Yon berishlik shkalasi bo‘yicha 4-7 yilgacha bo‘lgan migrant oilalarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichida 63,51 yuqori natija kelib chiqdi. Migrantlar borgan xorij davlat mahalliy odatlariga, tiliga ko‘nikishga “majbur” bo‘lganligi sababli ularda o‘sha muhit holatiga moslashishi natijasida deb baholash mumkin.

Ishonuvchanlik-itoatkorlik shkalasi bo‘yicha ham ishonchli farq kuzatildi ($H=8,147$; $p < 0,05$). Bunda ham asosan 4-7 yillik oila migrantlarida o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari orasida 62,71 natijani ko‘rsatdi. Bunda migrant oilalarda er-xotin bir-biridan uzoq masofada bo‘lganligi sababli atrofdagi insonlarning fikrlariga ko‘proq quloq solishga moyilligi sababli ular orasida munosabatlarning ziddiyatli tusga o‘tishiga olib keladi. Oiladagi o‘z munosabtlarining yechimini topishda atrofdagi insonlar ko‘magigiga muhtoj bo‘lib qoladi. O‘sha sababli oilaga uchinchi shaxs aralashuvi munosabati bilan nizo kelib chiqadi, bu esa ajrimga sabab bo‘lishi mumkin.

Shaxslar o‘rtasida kechadigan u yoki bu muloqotning ustunligi o‘zaro tushunishning tegishli strategiyasini belgilaydi. Er-xotinlik munosabatlarning shakllanish bosqichida o‘zaro

tushunish va uyg‘unlikka mustaqil juftliklarning samarali muloqoti orqali erishiladi. Hamkorlar bir-biriga diqqat bilan qarashadi, notanish muloqot uslubiga, umuman hayot tarziga sezgir va talabchan bo‘lishadi. Oilaviy hayotning keyingi bosqichlarida yosh oiladagi muloqotning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu ko‘pincha shaxslararo nizolar manbasi bo‘lgan uchrashuvga qaraganda hissiyotlarning yorqinroq namoyon bo‘lishidir. Shaxslararo muloqotning buzilishi oila faoliyatining eng dolzarb muammolaridan biridir. Oilalarda axloqiy-psixologik tartibni barqaror shakllantirish – oilaning ijtimoiy-psixologik hamjamiyat sifatida rivojlanish darajasining ajralmas ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik iqlim oilaning eng muhim funksiyalaridan biridir. U nafaqat oilaviy hayotda va uning ishtirokchilarida o‘ziga xos iz qoldiradi, balki oilaviy tarbiya rivojlanadigan ma’naviy muhitni ham shakllantiradi, o‘zaro empatik munosabatlar darajasining oshishiga ham xizmat qiladi.

Navbatdagi tahlil Samarqand viloyati misolida migrant va migrant bo‘lmagan oilalarning shaxslararo munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan metodikamiz natijalarining tahliliga bag‘ishlanadi. Oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari tizimi ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti va munosabatlari jarayonida rivojlanib boradi. Juftliklarning ehtiyojlari, qiziqishlari, munosabatlari, odatlari, qadriyatlar, his-tuyg‘ularining o‘zaro ta’siri natijasi bo‘lgan ijtimoiy-psixologik iqlim oilaviy barqarorlik darajasini belgilab beradi.

5-jadval

**“Shaxslararo munosabat diagnostikasi”
(T.Liri) metodikasining tahlili (n=155)
Samarqand viloyati misolida**

Shkalalar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Migrant oilalar (n=95)	Migrant bo‘lmagan oilalar (n=60)	U	p
O‘ziga ishonch	82,08	70,13	2367,500	0,103
Talabchanlik. Murosasizlik	79,15	74,85	2646,000	0,558
Yon berishlik. Bo‘ysinuvchanlik	84,28	66,58	2158,000	0,016*
Ishonuvchanlik. Itoatkorlik	80,00	73,47	2565,000	0,374

Izoh: *- $p < 0,05$

Migratsiya shaxs mobilligining o'ziga xos ko'rinishi bo'lsa-da, mamlakatdan mamlakatga qisqa muddatli ko'chish doimiy yoki uzoq muddatli yashash uchun joylashish istagi bilan emas, balki faqat xizmat safari yoki turistik sayohat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday harakatlar boshqa davlatga ishlash uchun tizimli (masalan, mavsumiy) ko'chish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik yoki mehnat migratsiyasini anglatadi. Mehnat migratsiyasining maqsadi xorijda ishlab topgan pullaridan foydalangan holda kelib chiqqan mamlakatda ularning moddiy farovonligini oshirishdan iborat. Biroq, "to'liq huquqli" migrantning (ilmiy psixologiya uchun eng katta qiziqish uyg'otadigan migrant) yakuniy maqsadi – doimiy yashash joyiga ko'chib o'tish, yangi jamiyatda fuqarolikni olish, fuqarolik huquqlarini olish, doimiy ishlash maqsadi ustunlik qiladi.

Migrantlar yangi mamlakatni ikkinchi Vatan yoki bir qator ijtimoiy va hatto psixologik ehtiyojlar qoplanishi mumkin bo'lgan joy sifatida qabul qilishni boshlashadi. Ularda mobillikka bo'lgan ehtiyojning o'zi ichki psixologik impuls ta'sirida shakllanadi, ma'lum ehtiyojlarning qondirilmasligi natijasida yuzaga keladigan barqaror ruhiy stress, shaxs psixikasining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra standart usullarda yengishga qodir emas. O'ziga ishonch, o'zini yaxshi ko'rish ko'rsatkichi bo'yicha migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 82,08 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha rang ko'rsatkichi 70,13 ni tashkil etdi ($U=2367,500$; $p<0,103$). Migrant oilalarda o'ziga ishonchning migrant bo'lmagan oila vakillariga nisbatan yuqori bo'lishi ularning mustaqillik darajasining, oilaga "qaram" bo'lmaslik ko'rsatkichining balandligi bilan bog'liq.

Talabchanlik, murosasizlik shkalasi bo'yicha migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 79,15 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha rang ko'rsatkichi 74,15 ni tashkil etdi ($U=2646,500$; $p<0,558$). Migrant oilalarda talabchanlikning ma'lum darajada ustun bo'lishini jamiyatdagi islohot, o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojlarining qoniqish darajasining yuqori bo'lganligi natijasi deb aytishimiz mumkin. Bu o'z navbatida shaxslarga "ko'chirilgan" bo'lib, migrant oilalarda er-xotinlarning bir-birlaridan, farzandlaridan kutilmalari ancha yuqori bo'ladi. Shu sabab, oiladagi kelishmovchiliklar ildiz otishi holatlari ham kuzatiladi.

Yon berishlik, bo'ysinuvchanlik shkalasi bo'yicha migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 84,28 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha rang ko'rsatkichi 66,58 ni tashkil etdi ($U=2158,000$; $p<0,05$). Mazkur ko'rsatkich bo'yicha sinaluvchilarimiz guruhidagi natijalar orasida ahamiyatli farqlar kuzatilgan bo'lib, migrant oilalar yangi muhit sharoitlariga moslashish, yaxshi, daromadli ish bilan muntazam band bo'lish uchun tub aholi bilan shaxslararo muloqotga kirishish davomida yon berishlik, bo'ysinuvchanlik pozitsiyasida "doimiy" turishlari bilan xarakterlash mumkin.

Ishonuvchanlik, itoatkorlik shkalasi bo'yicha migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 80 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha rang ko'rsatkichi 73,47 ni tashkil etdi ($U=2565,000$; $p<0,374$). Mazkur shkala bo'yicha ham yuqoridagilarda bo'lgani kabi migrant oilalarda ustunliklarni ko'rishimiz mumkin. Migrantlar yillar davomida orttirgan tajribalariga qaramasdan shaxslararo munosabatlarda ko'pincha ishonuvchan bo'lishadi. Buni yangi madaniy muhitda qo'shimcha imkoniyatlarni o'zi uchun tashabbus ko'rsatish orqali yaratish ehtiyojining ustun bo'lishi bilan bog'lashimiz mumkin.

Migrant oiladagi ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar tizimidagi ijtimoiy-psixologik muammolarga o'zaro persepsiya dinamikasining buzilishi, farzanddagi erkinlikka, mustaqillikka intilish istagining kuchli bo'lishi ta'sirida "nazorat mexanizmlarini" inkor etish, ota-onaning bola tarbiyasiga javobgarlikni "uchinchi shaxs" zimmasiga topshirishi tufayli farzandda sodir bo'ladigan dezadaptatsion o'zgarishlar kirishi aniqlandi. Migrant oilalarda pulga bo'lgan munosabat chet elda ishlash davomida o'zgarib borar ekan. O'z Vatanida pulga bo'lgan munosabat balandligi uchun ham moddiy ehtiyojlari qondirilmagan bo'lsa, begona joyda "non" topish orqali pulni qadrlash yoki yanada ko'proq pul topishga intilish motivi ham ortib borishini kuzatishimiz mumkin ($r=0,139$; $p<0,05$). Ishlash muddatining davomiyligi migrant shaxsida oilasi oldidagi mas'uliyatni oshirishi bilan birga yangi tajribalardan zavqlanish, imkoniyatlar eshigini ochishdan rohatlanish hissinging ortishiga ham turli bo'lar ekan ($r=0,132$; $p<0,05$). Shu bilan birga, migrant oilalardagi er-xotin munosabatlarida oiladagi rollarni to'g'ri taqsimlash, ularni anglagan holda ado etish bir-birlariga bo'lgan munosabatlarning ijobiylashishiga

($r=0,175$; $p<0,01$), o'zaro ishonch tuyg'usining yuksalishiga ham olib keladi ($r=0,153$; $p<0,05$). Er-xotin o'rtasidagi burch va zavq hissining teng, to'g'ri taqsimlanishi o'zaro muloqot jarayonidagi bir-birlarining ayblariga "ko'z yumish" ($r=0,174$; $p<0,01$), yanada bir-birini hurmat qilish orqali samimiy ishonch hissining ham ko'payishiga zamin yaratadi ($r=0,241$; $p<0,01$).

Migrant oiladagi ota-onalarda o'z farzandiga munosabatning yaxshi tarafga, ijobiylashuvi natijasida farzandni shaxs sifatida "baholash", "qabul qilish", uning fikrlarini inkor qilmaslik ham ma'nan, ham ruhan qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichi ham ortib borishi kuzatildi ($r=0,163$; $p<0,01$). Ota-ona tarafidan farzandiga munosabat shaklining o'zgarishi natijasida uning xulq-atvoriga bevosita ta'sir etish bilvosita shaklga o'zgarib, farzandning qarorlarini hurmat qilish, u bilan do'stona aloqalar o'rnatish xohishi kuchayib, unga ishonch berish ko'lamini yanada barqarorlashib barcha xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash istagi ham ortib borar ekan ($r=0,193$; $p<0,01$). Ushbu jihatlar ota-onasidan uzoqda, qarindoshlarining "qanotlari ostida" yashovchi bolaga umid, kelajakka ishonch, mas'uliyatni yanada ko'p his qilish kabi omillarning dinamik harakatini oshirsa, ikkinchi tarafdan esa, bolada ota-onaning bildirgan ishonchini suiste'mol qilish, "Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi" qabilidagi xalqimiz ijodiyotining mahsuli hisoblangan xalq maqollarining amalda – bola xulq-atvorida real namoyon bo'lish ehtimolini oshirib yuborar ekan.

Migrant juftliklardagi o'zaro munosabatlar ko'lamini nafaqat oiladagi intim aloqalar, farzand tarbiyalash, burch va zavq hissini birgalikda tuyish, balki uy-ro'zg'or ishlarini, hayotning past-balandliklaridagi turli tashvishlarni yengib o'tish kerak bo'lgan vaziyatlardagi korporativ hamkorlik qilish zarurati namoyon etiluvchi paytlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan oiladagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojiga yondashuvning optimallasuvi natijasida shaxslararo munosabatlarda er-xotinning vaziyatni barqarorlashtirish yuzasidan takliflarini, harakatlarini yuzaga chiqarish talabi ortsa ($r=0,142$; $p<0,05$), qarorlarning "so'nggi imzosi" qo'yilishi, amaliy hayotiy faoliyatga tatbiq etilishi borasida fikrlarini inobatga olishda yon berishlik tamoyiliga amal qilish ehtimoli ($r=0,207$; $p<0,01$) hamda o'zaro ishonch darajasi ham ortib boraverar ekan ($r=0,220$; $p<0,01$).

Oiladagi mustahkamlik, simpatik aloqalar,

muhabbat tuyg'usining ortib borishiga bevosita ta'sir etuvchi romantik munosabatlarga er-xotinning yondashuvi o'zgarib, yillar sinovida toblanib, yaxshilangani sari ularning munosabatlarida yon berishlik ($r=0,196$; $p<0,01$) va bir-birlariga ishonch hissi ham mustahkamlanib boraverar ekan ($r=0,225$; $p<0,01$). Mazkur jihat bugungi kunda salbiy oqibatlariga olib kelayotgan migratsion munosabatlardagi ajrim, xiyonat kabilarni kamaytirishda muhim "mayatnik" bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mental xususiyatlarimizdan kelib chiqib, oiladagi intim munosabatlar har bir oilaning "yashirin, ichki masalalari" hisoblanib, uni ko'pchilik oldida muhokama qilish, boshqalarning noo'rin aralashishi jamiyatimiz tomonidan keskin tanqid qilinadi. Aynan psixodiagnostik metodikamizning mazkur xususiyatga munosabat ko'lamini ifodalovchi ushbu ko'rsatkichini tahlil qilish natijasida migrant oilalarning aksariyatida kuzatilayotgan jinsiy hayotdan qoniqish darajasining pastligi, jinsiy ta'qiqqa munosabatlarning salbiyligi bir-biridan uzoqda, yillar davomida "ayriliqda" yashayotgan juftliklardagi o'zaro munosabatlarning, nizolarning destruktiv ko'rinish olishi natijasida ajrimlar, ayolning erga, erning ayoliga xiyonati kabi negativ holatlarning takrorlanish chastotalari kundan-kunga, soat sayin ortib borayotgani sir emas. Ushbu fikrlarning tasdig'i o'laroq, migrant oilalardagi juftliklarning jinsiy hayotdagi bahoga munosabatining salbiy tomonga o'zgarishi natijasida shaxsning, juftliklarning shaxslararo munosaatlarida o'ziga ishonish, imkoniyatlarini yuqori baholash kabilarda hamda motivatsion-hissiy sohalarida kamchiliklar kuzatilib borishi tasdiqlanganini ko'rishimiz mumkin ($r=-0,136$; $p<0,01$).

Migrant oiladagi er-xotinlarning jinsiy hayotlagi baholarining salbiy bo'lishi esa, er-xotinning bir-birlaridan kutilmalari ushalmaganligi uchun haddan tashqari ko'p narsalarni talab qilish darajasining ortib ketishiga ($r=0,159$; $p<0,05$), munosabatlarda yon berishlik, o'z holiga qo'yish, majburlamaslik, e'tibor, xohish-istaklarni bostirish mexanizmining yaxshilanishiga ($r=0,200$; $p<0,01$) hamda juftidagi kechinmalarning boshqa tarafga, ijobiy pozitsiyaga o'tishiga ishonish xohishining yuksalishiga ham ($r=0,251$; $p<0,01$) zamin yaratar ekan.

Tadqiqotimizdagi vazifalarni bajarish davomida e'tiborimizni tortgan yana bir jihat – jinsiy hayotga munosabat ko'lamining ijobiy yoki salbiylashuvi migrantlik muddati davriyligi bilan uzviy bog'liq

bo'lib, masofalar uzoqlashishi jinsiy hayotning regressiyasiga, migrantlik siklining kamayish yoki qisqarishi esa er-xotin munosabatlaridagi jinsiy hayot faktorining rolini oshirish ko'rsatkichining progressiyasiga olib kelishi aniqlandi ($r=-0,137$; $p<0,05$). O'z navbatida, jinsiy hayotga juftliklar yondashuvdagi farqlar ko'payib borsa, ulardagi shaxslararo munosabatlarda talabchanlik ($r=0,468$; $p<0,01$), yon berishlik ($r=0,349$; $p<0,01$) hamda ishonuvchanlik ($r=0,363$; $p<0,05$) ham ortib borar ekan.

Oiladagi mavjud tizimning, boshqaruv shaklining ahamiyatiga e'tibor berishning ortishi, rollar taqsimlanishi yuzasidan er-xotinning o'z majburiyat va burchlarini ado etishini bir-birlaridan talab qilish ($r=0,138$; $p<0,05$) va mas'uliyatni bajarishga ishonish ($r=0,204$; $p<0,01$) hislarining ortishiga ham imkon beradi. Oilaviy hayotda moddiy manfaatdorlik, iqtisodiy funksiyaning ishlashiga diqqatning har doimgidan ham ko'proq qaratilishi oilalarning "pul ortidan quvib", moddiy ta'minot yaxshi beriladigan joylarda ishlash motivining ortishiga olib kelishi ularda migrantlikning anglangan motivi paydo bo'lishi asnosida chet elga borish istagining yuksalishiga turtki bo'lar ekan ($r=0,139$; $p<0,05$).

6-jadval

"Shaxslararo munosabat diagnostikasi"
(T.Liri) metodikasining migrantlik muddati
ko'rsatkichlari asosida tahlili (n=95)
Samarqand viloyati misolida

Shkalalar	O'rtacha ranglar			Statistik qiymat
	1-3 yil (n=38)	4-7 yil (n=37)	8 yildan yuqori (n=20)	H
O'ziga ishonch. O'zini yaxshi ko'rish	47,86	45,41	53,08	1,023
Talabchanlik. Murosasizlik.	47,80	51,19	42,48	1,320
Yon berishlik. Bo'ysinuvchanlik	45,97	51,01	46,28	0,736
Ishonuvchanlik. Itoatkorlik	46,01	49,20	49,55	0,336

"Shaxslararo munosabat diagnostikasi" metodikasining Samarqand viloyati misolida tahlili

amalga oshirilganda hech bir ko'rsatkich bo'yicha ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. O'ziga ishonch, o'zini yaxshi ko'rish shkalasi bo'yicha migrantlik muddati 1-3 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 47,86 ni, 4-7 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 45,41 ni, 8 yil va undan ortiq muddat bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 53,08 ni tashkil etdi ($H=1,023$; $p>0,05$). Mazkur ko'rsatkichning 8 yil va undan ortiq muddatli tajribaga ega migrant oilalarda nisbatan yuqori bo'lishi migrantlarning yillar davomida orttirgan tajribasi, ishlab, yashayotgan muhitining "past-balandliklari"ni bilib olganliklari, shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmasining shakllanganligi deb baholash mumkin.

Talabchanlik, murosasizlik shkalasi bo'yicha migrantlik muddati 1-3 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 47,80 ni, 4-7 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 51,19 ni, 8 yil va undan ortiq muddat bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 42,48 ni tashkil etdi ($H=1,320$; $p>0,05$). Talabchanlik ko'rsatkichining 4-7 yildagilarda yuqori bo'lishi migrantlarning mahalliy, tub aholi "tili"ni topganligi natijasi deb baholash mumkin.

Yon berishlik shkalasi bo'yicha migrantlik muddati 1-3 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 45,97 ni, 4-7 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 51,01 ni, 8 yil va undan ortiq muddat bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 46,28 ni tashkil etdi ($H=0,736$; $p>0,05$). Yon berishlik ko'rsatkichining 4-7 yildagilarda yuqori bo'lishi migrantlarning boshdan kechirgan shaxsiy tajribasi orqali "bo'lar-bo'lmas" voqealarga nisbatan reaktiv munosabat bildirish, frustratsion kayfiyatda yurishdan ularga "foйда" yo'qligini anglab yetganliklarining oqibati sifatida ta'riflashimiz mumkin.

Ishonuvchanlik, itoatkorlik shkalasi bo'yicha migrantlik muddati 1-3 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 46,01 ni, 4-7 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 49,20 ni, 8 yil va undan ortiq muddat bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari 49,55 ni tashkil etdi ($H=0,336$; $p>0,05$). Ishonuvchanlik hamda itoatkorlik ko'rsatkichining 1-3 yildagilarda boshqa respondent sifatida ishtirok etgan migrant oilalarga qaraganda yuqori bo'lishi migrantlarning mahalliy, tub aholi "tili"ni topishga bo'lgan motivlarining ustun kelishi asnosida, yangi muhit talablariga "og'ishmay" itoat qilishga intilishlarining – moddiy,

ma'naviy va professional faoliyatda "yutuqlar"ga erishish kafolati deb baholashlarining "oqibati" deb xulosalar chiqarishimizga sharoit yaratadi.

Shaxsning hayot yo'nalishlari uning hayotiy maqsadlari mavjudligini, tanlov va baholashning mazmundorligini, hayotdan qoniqish, o'zini o'zi anglashi natijasida mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini aks ettiruvchi anglangan va tanlangan bog'lanishlarning ajralmas qismi bo'lib, migrant oilalarda maqsadlarning mavjudligi, maqsadlar ustuvorligining ahamiyati oshishi, atrofdagilarning fikrlariga yon bosish, berilayotgan taklif va tavsiyalarni inobatga olish ehtimolini ham ko'payishiga zamin yaratishi kuzatildi ($r=0,313$; $p<0,05$). Mazkur jihat migrantlarning yaqinlari bilan bo'lgan shaxslararo munosabatlarida yaqqol namoyon bo'lishini, mehnat faoliyatini chet davlatda davom ettirish, kelajak uchun tuzayotgan rejalarini muhokama qilish, qaror qabul qilish jarayonida tashqi ko'maklarga ergashishlarida kuzatish mumkin.

7-jadval

Migrant oilalardagi shaxslararo munosabatlar hamda hayot mazmuni yo'nalganligi orasidagi bog'liqlik qonuniyati (Ch.Spirman korrelyatsiya koeffisienti)

Ko'rsatkichlar	O'ziga ishonch	Talabchanlik, murosasizlik	Yon berishlik	Ishonuvchanlik
Sevgi	0,122	0,108	0,038	0,245
Simpatiya	-0,021	0,039	-0,049	0,047
Ijtimoiy frustatsiya	-0,122	-0,002	-0,345*	-0,059
Maqsad	0,169	-0,056	0,313*	0,154
Jarayon	-0,080	-0,356*	0,078	-0,335*
Natija	0,109	-0,279*	0,163	0,132
"Men" lokus nazorati	-0,326*	-0,046	-0,498**	-0,226
"Hayot" lokus nazorati	0,013	-0,170	-0,095	-0,133

Izoh: * - $p<0,05$, ** - $p<0,01$

Bizni qiziqtirayotgan tadqiqotimiz davomidagi yana bir jihat bu – olingan metodikalarning natijalari o'rtasidagi aloqadorlikning mavjud yoki mavjud emasligidir. Bunda biz sinaluvchilarimizning hududlar kesimidagi farqlari va ularning etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda migrant oiladagi shaxslarning shaxslararo munosabatlariga, hayot yo'nalishlariga, shuningdek, ijtimoiy qoniqish darajasiga sevgi,

simpatiya kabilarning bog'liqlik ko'rsatkichlarini tahlil qilishni lozim topdik. Andijon viloyati misolida tadqiqotda ishtirok etgan migrant oilalar ko'rsatkichlarining korrelyatsion aloqadorliklar tahlili amalga oshirilganda quyidagicha natijalar kuzatilgani e'tiborimizni tortdi. Migrant oilalarda jamiyatdagi o'zgarishlar, o'zlarining jamiyatda egallab turgan statuslari, davlat tarafidan yaratilayotgan sharoit, xizmatlardan koniqmaslik darajasi ortgani sari ularning muloqotlarida, shaxslar bilan munosabatlarida yon berishlik, qabul qilishlik, fikrlar xilma-xilligini adekvat baholash kabilar kamayar ekan, ijtimoiy frustratsiya va yon berishlik ko'rsatkichlari o'rtasida manfiy korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi ($r=-0,208$; $p<0,05$). Aksincha, jamiyatdagi o'zgarishlarni, o'zini statusini ongli qabul qabul shaxsda o'ziga bo'lgan ishonchni ortishiga olib keladi ($r=0,332$; $p<0,01$).

Shaxsda boshqalarning dardini tushunish, ularga hamdardlik bildirish kabi insoniy tuyg'ularning ortishi atrofdagilarga mo'tadil baho berish ($r=0,300$; $p<0,01$), ularga ishonish, boricha qabul qilish, yordam qo'lini cho'zish uchun imkoniyat taqdim etishni kuchaytirs (= $r=0,245$; $p<0,01$) va begonalarning qarorlari, fikrlarini inobatga olish, hurmat qilish darajasining ortishiga olib keladi ($r=0,179$; $p<0,05$). Navbatdagi aloqadorlik ko'rsatkichi hayotiy jarayon va talabchanlik ($r=-0,356$; $p<0,05$), hayotiy jarayon va ishonuvchanlik shkalalari o'rtasida manfiy korrelyatsion bog'liqlik kuzatilgan bo'lib ($r=-0,335$; $p<0,05$), migrant oila vakillarida hayotiy jarayonlarni baholashda emotsional yo'nalganlikning ortib borishi natijasida o'zga, notanish madaniyat vakillari bilan kechadigan madaniy aloqalar, munosabatlarda talabchanlik, o'z oila a'zolariga nisbatan murosasiz bo'lish kabilarda "yumshoqlik" paydo bo'lar ekan. Yana bir aloqadorlikni sharhlar ekanmiz, migrant oilalarda hayotiy jarayonlarni nazorat qilish ko'lamining ortishi, mehnat faoliyatida tajribaga ega bo'lish kabi omillar natijasida begonalarning fikrlariga qo'shilib ketish, ularni ma'qullash va ishonch bildirish salmog'i kamayib borar ekan. Bir tomondan bu duch kelgan insonga ishonib ketavermaslik ko'nikmasini migrantlarda shakllantirs, ikkinchi tarafdan esa, oilaviy munosabatlar tizimida hayotiy jarayonlarni o'z izniga solish holati tufayli er va xotinning o'zaro munosabatlarida o'z kuchiga ishonib, mustaqillikni da'vo qilish istagini yuzaga keltiradi hamda ularda ajralish xavfini yuzaga keltiradi. Andijon viloyatidagi migrant oilalardagi er-xotin, farzand va

ota-onalar oʻrtasidagi munosabatlar tahlilini amalga oshirish maqsadida korrelyatsion munosabatlar koeffitsienti natijalarining muvofiqlik koʻrsatkichlari izohlash quyidagicha tus olganini koʻrishimiz mumkin. Shaxslarga munosabat darajasining oʻzgarishi natijasida ularning hayotiy faoliyatlarida samaradorlik natijasiga taʼsir koʻrsatish ($r=-0,174$; $p<0,05$), “men” lokus nazoratining kamayishi ($r=-0,293$; $p<0,01$) mumkin.

Juftliklardagi oʻzaro burch va zavq hissining kamayishi, masʼuliyatni his qilish pasaygani sari ularda hayotiy natijalarga erishish istagining kamayishi ($r=-0,282$; $p<0,01$), oʻzini turli pozitsiyalarda nazorat qilmaslik, vadaga vafo etmaslik sonining ortishi, javobgarlikni “boʻyniga olishdan” qochish ($r=-0,450$; $p<0,01$) hamda hayotidagi nazorat koʻlamini oʻzi tashkil etish, boshqalarning oʻzining ishlariga aralashtirmaslik, qarorlarni muhokama qilmaslik darajalarining ortishiga ($r=0,224$; $p<0,01$) ham olib keluvchi omillardan biri ekanligini koʻrishimiz mumkin. Farzandga boʻlgan munosabatning ota-ona tomonidan oʻzgarishi oʻz navbatida juftliklarning hayotiy yoʻnalganligidagi baʼzi jihatlariga oʻz taʼsirini koʻrsatmasdan qolmasligi mumkin ekan, xususan, oʻz farzandidan koʻp narsani talab qilish, undan uzoqda boʻlishiga qaramay real potentsialini inobatga olmagan holda vazifa, buyruq, topshiriqlarning nooʻrin berilishi natijasida ota-onaning oʻz fikrlarini oʻtkazish kuchi ortib boradi ($r=-0,411$; $p<0,01$), farzandidagi holatga eʼtibor berishning salbiylashishi esa, kelajakdan natijalarni kutish ehtimolini kamaytiradi ($r=-0,296$; $p<0,01$). Juftliklarning birgalikdagi faoliyatiga diqqatining yuqori boʻlishi, ularda mustaqil qarorlar qabul qilish, oʻz fikrini erkin ifoda etish darajasiga ham taʼsir etadi ($r=-0,276$; $p<0,01$), ammo, hamohang tarzda bitta maqsad yoʻlida hamkorlik qilish, oʻz rollarini masʼuliyat va soʻflik asosida “ogʻrinmasdan” ado etish darajasining ortishi hayotidan asl maʼno-mazmun izlash koʻlamining ham ortishiga yoʻl ochadigan sababiy omillardan boʻlishini kuzatishimiz mumkin ($r=0,314$; $p<0,01$).

Migrant oilalardagi ajralishga munosabat doim tadqiqotchilarning lokus markazida boʻlgan muammolardan biri boʻlib kelganini inobatga olsak, ajralishning migrant oila vakillarining birida ildiz otishi, boshqalarning taʼsiriga berilib oʻz oilasidan voz kechish, masʼuliyatni his qilmaslik, qaror qabul qilish imkoniyatini “oʻzgalar” zimmasiga yuklashga olib kelishi bilan birga ($r=-0,303$; $p<0,01$), hayot mazmunini qidirish, yangi marralarni zabt etish,

natijalar uchun kurashish motivining “soʻnishiga” ham zamin yaratar ekan ($r=-0,170$; $p<0,05$). Shular bilan birga, migrant oilalarda ajralish motivining paydo boʻlishi, oʻz hayotlari mazmunini yangidan kashf etish, integratsiyalashuv, boshqa shaxsning fikrlari “qaramligidan ozod boʻlish”, oʻzga bilan oʻrtoqlashmaslik, hayoti uchun javobgarlikni oʻz boʻyniga olish, hayotining farovon boʻlishi uchun mehnat qilish istagining ortishiga sabab boʻladi ($r=0,424$; $p<0,01$).

Migrant oilalar hayotida romantika alohida ahamiyat kasb etishi ham tadqiqotimiz mobaynida qoʻlga kiritilgan muhim va diqqatga sazovor natijalardan biri boʻldi, deyishimiz mumkin. Oiladagi romantik turga boʻlgan munosabat koʻlamining oʻzgarishi hayot faqat “oʻldim-kuydim”dan iborat boʻladi degan qarashni shakllantirishi oqibatida, shaxslarda ishqiy munosabatlarga kirishish ehtiyojining ortishiga olib kelishi natijasida hayotlaridagi asosiy, ustuvor maqsadlardan chekinish koʻlamini rivojlantirar ekan ($r=-0,187$; $p<0,05$). Shuningdek, sevgiga “mukkasidan” ketish migrant oiladagi juftliklarda xiyonat, oʻz juftidan qoniqmaslik, yangi “munosabatlarga” ehtiyojlarning tugʻilishiga zamin yaratib, mazkur omillar taʼsirida shaxsda oʻz hayotini oʻzi boshqarish, fikrlarini amalga oshirish imkoniyatlari cheklanar ekan ($r=-0,193$; $p<0,05$). Yuqorida keltirilgan salbiy qarashlar bilan birga, migrant oilalardagi juftliklarda “asalning ham ozi shirin” qabilida ishqiy munosabatlarga kirishishi, bir-birini masofalar yiroq boʻlishiga qaramay sevishi, ardoqlashi, ular tarafidan oʻylangan hayotiy strategilarni roʻyobga chiqarishni nazorat qilish imkoniyatini vujudga keltirishi mumkinligini olingan natijalar tahlilidan bilishimiz mumkin ($r=0,290$; $p<0,01$).

Jinsiy hayotdagi bahoga munosabatning past darajada ekanligi natijasida boshqa viloyatdagi migrant oilalarda boʻlgani kabi Andijon viloyatidagi migrant juftliklarda ham oʻz hayotiy maqsadlarini amalga oshirishning kamayishi ($r=-0,325$; $p<0,01$), jinsiy ehtiyojlarning qondirilmaganligi sababli kechadigan psixofiziologik oʻzgarishlar taʼsirida faoliyat jarayonidagi natijalarning ortga surilishi ($r=-0,419$; $p<0,01$), oʻzini nazorat qila olmaslikning oqibatida ($r=-0,452$; $p<0,01$) ehtiyojlarini “oʻzga”lar bilan qondirish ehtimoli ortib boradi va bu oiladagi totuvlik, inoqlik hamda oʻzaro ishonch tuygʻularining “darz” ketishiga sabab boʻladi. Shularga qaramay, jinsiy munosabatlardagi bahoga munosabatning migrant oilalarda baland yoki normal holatda boʻlishi umrining davomini birgalikda mazmunli

o'tkazish, faoliyatlarini balanslashtirish va o'z imkoniyatlarini ishga solish, hayotiy faoliyatda kooperativ hamkorlik qilish orqali o'zlarining xatti-harakatlari ustidan nazoratni to'liq o'rnatish va xulq-atvoridagi barcha elementlarga "javob berish" ko'nikmasining ortishiga ko'maklashuvchi omillardan biri bo'lishi aniqlandi ($r=0,206$; $p<0,05$).

Intim munosabatlarda juftliklarning bir-biridan qoniqish hosil qilmasligi ularning umumiy maqsadlariga ta'sir etishi ($r=-0,272$; $p<0,01$), faoliyat natijalarini kutmaslik motivining paydo bo'lishiga ($r=-0,336$; $p<0,01$), o'zining xulq-atvoridagi o'zgarishlarni to'liq nazorat qila olmaslikka ($r=-0,384$; $p<0,01$) olib kelishi natijasida, xiyonat ko'chasiga kirib qolish ehtimolini orttiradi va migrant oilalardagi disbalanslikni yuzaga keltirib, destruktiv ko'rinishdagi nizolarning dinamik xarakterining ortishiga yo'l ochadi. Biroq, jinsiy hayotga migrant oilalardagi er va xotinning ijobiy munosabati turmushning past-balandliklarini birga yengib o'tish, intim ehtiyojlarni halol yo'l bilan qondirishga intilish, shuningdek, masofalar faktoriga ahamiyat bermay, sog'lom, reproduktiv turmush tarziga amal qilish orqali faoliyatlarini o'zlari nazorat qilish samarasining ortishiga imkon berishi kuzatildi ($r=0,168$; $p<0,05$).

Oiladagi avtoritar turdagi tizimning "sarqitlari" saqlanib qolishi juftliklardagi maqsadlarni to'g'ri va aniq qo'yish ko'nikmasini shakllantirmaslikka yo'l ochsa ($r=-0,190$; $p<0,05$), farzandlarda, er va xotinning o'zaro shaxslararo kechadigan munosabatlarida so'nggi fikrini bildirish, "so'z erkinligi"ning deyarli yo'qligi natijasida shaxsda o'ziga ishonmaslik, o'zini past baholash, real potentsial darajasini inobatga olmaslik, birovlarining shaxsiy hayotiga aralashishlariga "yo'l ochib berish" kabilarni tezlashtirib yuboradigan, oqibati salbiy voqealar asosida yakun topuvchi holatlarga undashi ma'lum bo'ladi ($r=-0,316$; $p<0,01$).

Xulosa. Migrant oilalarning asosiy motivlaridan biri sifatida moddiy farovonlikka intilishni oldingi paragraflarimizda aytib o'tganimizdek, pulga munosabat ko'lamining yuqori bo'lishi, oilada barcha narsani moddiyat asosiga qurishga zamin yaratib, pul topish motivining baland bo'lishi, boshqa shaxs uchun kerakli bo'lgan relaksatsiya, o'zini ma'nan, ruhan takomillashtirish, o'zini to'g'ri baholash kabi ehtiyojlarining kamayishiga olib kelib, hayotiy faoliyatdagi natijalarga erishish ko'rsatkichini susaytiradi ($r=-0,175$; $p<0,05$). Pulga bo'lgan munosabat ko'lamining ortishi oqibatida, shaxs o'zini "o'qqa-cho'qqa" urishi ortadi, o'zining sog'ligini, psixologik holatini, salomatligini nazorat qila olmay qoladi, bu esa, hayotiy jarayonlarni ongli idrok etish qobiliyatini susaytiradi, noto'g'ri qarorlar qabul qilish ehtimolini orttiradi ($r=-0,254$; $p<0,01$).

Migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi etnomadaniy va krossmadaniy omillarning differensiatsiyasi ulardagi qadriyatlarining ierarxiyasidagi hayotiy mazmun ko'rsatkichlarining darajalanishiga ta'sir etishi mumkin. Migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi instrumental qadriyatlarni tanlash jihatidan ham sezilarli farqlar mavjudligi yana bir bor kuzatilib, "mustaqillik", "o'z fikrini erkin ifoda etish", "ziyraklik" kabilarda migrant oilalar ko'proq ustunlik ega bo'lishgan. Aynan ushbu qadriyatlarning ularda ustuvorlik kasb etishi mehnat motivatsiyasining, begona joylarga moslashish jarayonining inqirozsiz o'tishida rol o'ynashi mumkin. Migrant oila farzandlaridagi ijtimoiy-psixologik muammolar ota-onasi, yaqin qarindoshlarining boladagi o'zgarishlarga e'tiborsizligi natijasida vujudga kelib, aynan o'smirlik yoshidagi migrant oila farzandlarida muloqotga kirishish istagi, hammaslak qidirish, xulq-atvorida destruktiv xatti-harakatlarning namoyon bo'lishi migrant bo'lmagan oila farzandlariga qaraganda ustunlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Психологическая помощь мигрантам: травма, смена культуры, кризис идентичности / под ред. Г. У. Солдатовой. М. : Смысл, 2002
2. Берри Д. Кросс-культурная психология / и др.. Харьков, 2007.)
3. Берри Д. Аккультурация и психологическая адаптация: обзор проблемы / Д. Берри // Развитие личности. 2001. № 3, 4.
4. Мокрецова О.Г. Социально-психологические особенности адаптации трудовых мигрантов из Узбекистана. Дисс. ... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург. 2015. – 150 с.)
5. Ковалева Н.И. Социально-психологическое сопровождение процесса адаптации детей-мигрантов в условиях образовательного учреждения. Дисс. ... канд. психол. наук. – Москва. 2010. – 150 с.)